



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 166 sahifa,  
13-iyul, 2026-yil.*

## **BOSH MUHARRIR:**

**Karimova E'zoza Gapirjanovna** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Ibragimov X.I.** – pedagogika fanlari doktori, akademik  
**Shoumarov G'.B.** – psixologiya fanlari doktori, akademik  
**Qirg'izboyev A.K.** – Tarix fanlari doktori, professor  
**Jamoldinova O.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Sharipov Sh.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Shermuhhammadov B.Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Ma'murov B.B.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Madraximova F.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Kalonov M.B.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Nabiyev D.X.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Qo'ldoshev Q. M.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Ikramxanova F.I.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Ismagilova F.S.** – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
**Stoyuxina N.Yu.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
**Magauova A.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
**Rejep O'zyurek** – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
**Wookyu Cha** – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
**Polonnikov A.A.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
**Mizayeva F. O.** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
**Baybayeva M.X.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Muxsiyeva A.T.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Aliyev B.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Abdullayeva N. Sh.** – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**Doniyorov S. M.** – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**G'afurov D. O.** – falsafa fanlari doktori (Phd)  
**Shomurodov R.T.** – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Mirzayeva F. O.** – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Jalilova S.X.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Bafayev M.M.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Usmonova D.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
**Saifnazarov I.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Nematov Sh.E.** – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
**Tillashayxova X.A.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Yuldasheva F.I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Yuldasheva D.B.** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
**Tangriyev A. T.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
**Ashurov R. R.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Panjiyev M. A.** – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
**Xudayberganov N. A.** – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li** – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash .....                                                                                                 | 10  |
| <i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>                                                                                                                                     |     |
| Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda<br>qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari .....                                    | 14  |
| <i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>                                                                                                    |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari .....                                                                 | 19  |
| <i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>                                                                                                                                              |     |
| Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili .....                                                                            | 23  |
| <i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>                                                                                                     |     |
| Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi .....                                                                                                                    | 30  |
| <i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>                                                                                                                                         |     |
| Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili .....                                                                                      | 35  |
| <i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>                                                                                                     |     |
| Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va<br>uni amaliyotga joriy etish metodikasi .....                                       | 41  |
| <i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>                                                                                                                                      |     |
| Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish .....                                                                        | 47  |
| <i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>                                                                                                                                    |     |
| Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli .....                                                                                                       | 50  |
| <i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>                                                                                                                                       |     |
| Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari .....                                                                         | 54  |
| <i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>                                                                                                                                            |     |
| Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку .....                                                                                                | 58  |
| <i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>                                                                                                                                          |     |
| Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini<br>va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari ..... | 66  |
| <i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>                                                                                                           |     |
| Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va<br>mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili .....               | 70  |
| <i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>                                                                                                                                          |     |
| Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va<br>ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish .....              | 75  |
| <i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>                                                                                                                                    |     |
| Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar .....                                                                              | 80  |
| <i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>                                                                                                                                            |     |
| Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari .....                                                                                            | 85  |
| <i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>                                                                                                                                           |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va<br>oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari .....                                  | 88  |
| <i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>                                                                                                                                            |     |
| Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari .....                                                                                     | 91  |
| <i>Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>                                                                                                    |     |
| Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning<br>matematik modeli (Ziyoanim Overlap) .....                                 | 97  |
| <i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>                                                                                                                                    |     |
| Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning<br>uch komponentli konseptual modeli .....                                             | 101 |
| <i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>                                                                                                                                     |     |





|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....                                                  | 104 |
| <i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>                                                                                                                        |     |
| Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi ..... | 109 |
| <i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>                                                                                                                            |     |
| O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....                                                                            | 115 |
| <i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>                                                                                                                               |     |
| Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....                                                                                    | 119 |
| <i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>                                                                                                                               |     |
| 9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari .....                      | 123 |
| <i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>                                                                                                                              |     |
| Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarlari .....                                                                        | 126 |
| <i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>                                                                                                                           |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati .....                                              | 130 |
| <i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>                                                                                                                         |     |
| Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                    | 136 |
| <i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>                                                                                                                                  |     |
| Ruhiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati .....                                                                                       | 140 |
| <i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>                                                                                                                         |     |
| Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....                                                                                           | 144 |
| <i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>                                                                                                                               |     |
| Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....                                                                                                              | 149 |
| <i>Сеитова З. П.</i>                                                                                                                                               |     |
| Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'g'arak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari .....                                                                   | 153 |
| <i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>                                                                                                                   |     |
| Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....                                                                                                | 162 |
| <i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>                                                                                                                                 |     |

# XITOIY TILINI XALQARO MIQYOSDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Shasaidova Lola Shamaksudovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsent v.b, PhD

ORCID: 0009-0006-4267-8081

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 2026-yilda xitoy tilini o'qitishning zamonaviy tendensiyalari huquqiy kafolatlar, ta'limni standartlashtirish, isloh qilingan milliy standartlashtirish tizimi, mintaqalararo hamkorlik hamda lingvodidaktikaning chuqur raqamli transformatsiyasi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi xitoy tilining davlatlararo muloqot, iqtisodiy hamkorlik va akademik mobillik vositasi sifatidagi mavqeining global miqyosda mustahkamlanishi, shuningdek, me'yoriy-huquqiy tartibga solish, standartlarni yangilash, sertifikatlashtirish va raqamli ta'lim jarayonlarining o'zaro bog'liqligi yetarli darajada tahlil qilinmaganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda xitoy tilining xalqaro ta'lim yo'nalishi sifatida ommalashuvining huquqiy kafolatlari mazmunini ochib berish, milliy va xalqaro standartlarni yangilash jarayonlarini tahlil qilish, xitoy tilini bilish darajasini baholashning yangi versiyasidagi tarkibiy va mazmuniy o'zgarishlarni o'rganish, xitoy tilini ommalashtirish sohasida mintaqaviy ta'lim hamkorligining shakllari va istiqbollarini tavsiflash hamda xitoy tili ta'lim dasturlarining raqamli transformatsiyasi va raqamli targ'iboti ko'lamini baholash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitish, huquqiy kafolatlar, milliy standartlashtirish, Xitoy tilini bilish darajasi testi (HSK), raqamli modernizatsiya, raqamli transformatsiya, mintaqaviy ta'lim hamkorligi, zamonaviy tendensiyalar.

**Abstract:** This article examines modern trends in Chinese language teaching in 2026 from the perspectives of legal guarantees, educational standardization, the reformed national standardization system, interregional cooperation, and the profound digital transformation of linguodidactics. The relevance of the study stems from the growing global significance of the Chinese language as a means of international communication, economic cooperation, and academic mobility, as well as the insufficient analysis of the interrelationship between legal regulation, updated standards, certification, and digital educational processes. The study aims to examine the legal guarantees supporting the promotion of Chinese as an international educational discipline, analyze the processes of updating national and international standards, investigate the structural and substantive changes introduced in the new version of the Chinese Language Proficiency Test (HSK), describe the forms and prospects of regional educational cooperation in promoting the Chinese language, and assess the scope of the digital transformation and digital promotion of Chinese language educational programs.

**Key words:** international Chinese language teaching, legal guarantees, national standardization, Chinese Language Proficiency Test (HSK), digital modernization, digital transformation, regional educational cooperation, modern trends.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные тенденции преподавания китайского языка в 2026 году с позиций правовых гарантий, стандартизации образования, реформированной национальной системы стандартизации, межрегионального сотрудничества и глубокой цифровой трансформации лингводидактики. Актуальность исследования обусловлена возрастающим мировым значением китайского языка как средства международного общения, экономического сотрудничества и академической мобильности, а также недостаточной изученностью взаимосвязи между правовым регулированием, обновлением образовательных стандартов, сертификацией и цифровыми образовательными процессами. Цель исследования заключается в анализе правовых гарантий, обеспечивающих продвижение китайского языка как международного образовательного направления, изучении процессов обновления национальных и международных стандартов, исследовании структурных и содержательных изменений, внесённых в новую версию теста на знание китайского языка (HSK), характеристике форм и перспектив регионального образовательного сотрудничества в сфере популяризации китайского языка, а также оценке масштабов цифровой трансформации и цифрового продвижения образовательных программ по китайскому языку.

**Ключевые слова:** международное преподавание китайского языка, правовые гарантии, национальная стандартизация, тест на знание китайского языка (HSK), цифровая модернизация, цифровая трансформация, региональное образовательное сотрудничество, современные тенденции.



## KIRISH

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab xitoy tilini o'rganayotganlar soni ortib, xitoy tili va madaniyatini o'rganish orqali yangi rivojlanish imkoniyatlarini izlamoqdalar. 2025-yil oxiriga kelib dunyoning 212 ta mamlakati va mintaqasida xitoy tilini o'qitish yo'lga qo'yildi. 90 ta mamlakatda xitoy tili maktab ta'limi dasturlariga kiritilgan, ko'plab mamlakatlarda esa maktab bitiruv imtihonlari va oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida xitoy tili fakultativ chet tili sifatida taklif etiladi. 2026-yilga kelib xitoy tili xalqaro muloqot, iqtisodiy hamkorlik, akademik mobillik va madaniyatlararo muloqot tili maqomini yanada mustahkamladi.

Xitoy tilining XXRdan tashqarida keng tarqalishi nafaqat ta'lim jarayonini uslubiy jihatdan yangilashni, balki barqaror me'yoriy-huquqiy asosni shakllantirishni, ta'lim standartlarini uyg'unlashtirishni, malaka tizimlarini modernizatsiya qilishni, mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirishni hamda butun lingvodidaktik makonni chuqur raqamli transformatsiya qilishni talab etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi 2026-yilda xitoy tilini o'qitishni raqamli modernizatsiya qilish sharoitida huquqiy mexanizmlar, me'yoriy-huquqiy tartibga solish, til standartlarini yangilash, milliy standartlashtirish tizimini isloh qilish hamda mintaqaviy hamkorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning keng qamrovli tahlili yetarli darajada mavjud emasligi bilan izohlanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Til siyosati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro konvensiyalar, XXRning milliy ta'lim standartlari, lingvodidaktika hamda xalqaro ta'lim bo'yicha ilmiy va davriy nashrlar tahlili tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi. Amaldagi va yangilangan ta'lim standartlari, eski va yangi "Xitoy tilini bilish darajasi testi" (HSK) versiyalarini qiyosiy tahlil qilish, mintaqaviy hamkorlikning huquqiy kafolatlari va shakllarini tizimlashtirish hamda xitoy tilini masofaviy o'qitishning raqamli platformalari bo'yicha empirik tajribani umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot nazariy-prognostik xususiyatga ega bo'lib, 2026-yilda xitoy tili ta'limining rivojlanish tamoyillarini aniqlashga qaratilgan. Xitoyda ilk bor til va yozuvga oid "Xitoy Xalq Respublikasining standart og'zaki va yozma xitoy tili to'g'risida"gi Qonun<sup>[6]</sup> keng ko'lamli tahrirdan o'tkazildi va uning yangilangan tahriri 2026-yil 1-yanvardan rasman kuchga kirdi. Yangi tahrirning 22-moddasida xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitish milliy standart og'zaki va yozma xitoy tili hamda yozuvini o'rgatish, shuningdek, xalqaro hamkorlik orqali insoniyat tamaddunlari o'rtasidagi o'zaro ta'lim va almashinuvni rag'batlantirish vazifasi to'g'ridan-to'g'ri belgilangan. Ushbu tahrir ilk bor xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishni milliy huquqiy asosga kiritib, butunjahon ta'lim tashabbusining "qonuniy asoslangan va qoidalar bilan tartibga solingan" yangi bosqichini boshlab berdi.

Ta'kidlash joizki, qayta ko'rib chiqilgan hujjat loyihasida o'zaro uzviy bog'liq tushunchalar umumlashtirilib, "xitoy tilini chet tili sifatida o'qitish" atamasi "xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitish" atamasi bilan almashtirildi. Mazkur atamaning yangicha nomlanishi hamda uning mazmun doirasining kengayishi xitoy tili va madaniyatining xalqaro miqyosda tarqalishining yangi bosqichini, bir tomonlama rivojlanishdan ikki tomonlama o'zaro ta'sir, madaniyatlararo integratsiya va o'zaro o'rganish bosqichiga o'tganligini ifodalaydi. Shu bilan birga, Xitoy xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitish asoslarini mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator standartlar hamda yo'riqnomalarni ishlab chiqdi. Jumladan, "Xorijiy xitoy tili o'qituvchilarining raqamli savodxonligi bo'yicha dastur", "Xorijiy xitoy tili o'qituvchilarining umumiy savodxonlik standartlari" va "Xitoy tilini o'qituvchi xorijiy volontyorlarning asosiy kompetensiyalari standartlari" shular jumlasidandir. Joriy yilning 19-yanvar kuni yettita idora, jumladan, Ta'lim vazirligi hamkorligida "Xitoy tili va madaniyatining yuksak yutuqlarini muhofaza qilish va rivojlantirishni kuchaytirish hamda aholining til va madaniy savodxonligini oshirish bo'yicha mulo-hazalar" hujjati taqdim etildi. Mazkur hujjatda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan:

- Xitoy tili bo'yicha Butunjahon anjumanini o'tkazishni davom ettirish;
- "Xitoy tili ko'prigi", "Xalqaro xitoy tili kuni", "Yangi xitoy tili dasturi" hamda "Xitoy tilini bilish darajasi testi (HSK)" kabi nufuzli xalqaro loyihalarni yanada rivojlantirish;
- global miqyosda xitoy tilini o'rganish platformalari va xitoy tiliga oid uyushmalarni tashkil etishni qo'llab-quvvatlash;
- xorijiy mamlakatlarda xitoy tilini o'qitishni qo'llab-quvvatlash;
- xalqaro tashkilotlarda, iqtisodiy va savdo almashinuvlarida, ilmiy-ta'lim hamkorligi hamda insonlar o'rtasidagi almashinuvlarda xitoy tilidan foydalanishni rag'batlantirish;
- dunyo bo'ylab xitoy tilining nufuzini oshirish;
- xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishni rivojlantirish bo'yicha aniq strategik rejani ishlab chiqish.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yangilangan standartlar va siyosiy qo'llab-quvvatlash o'zaro kuchli sinergiyani shakllantiradi. 2025-yil noyabr oyida Xitoy Ta'lim vazirligining Til ta'limi va hamkorlik markazi Xitoy texnologiya instituti bilan hamkorlikda HSK 3.0 dasturini ishga tushirdi hamda bir vaqtning o'zida Xitoy test xizmati veb-sayti ([www.chinesetest.cn](http://www.chinesetest.cn)) orqali yuklab olish mumkin bo'lgan onlayn test savollarini e'lon qildi. HSK 3.0 xitoy tilini bilish darajasini baholash tizimini <sup>[7]</sup> olti darajadan to'qqiz darajagacha kengaytirish orqali chet ellik o'rganuvchilarning til ko'nikmalarini yanada ilmiy va batafsil baholash hamda sertifikatlashni ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur tizim quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- birinchi darajadan uchinchi darajagacha bo'lgan boshlang'ich darajalar – xitoy tilidagi kundalik muloqotning asosiy ko'nikmalarini baholaydi;
- to'rtinchi darajadan oltinchi darajagacha bo'lgan o'rta darajalar – o'qish, ish va kundalik hayotda zarur bo'lgan muloqot ko'nikmalarini baholaydi;
- yettinchi darajadan to'qqizinchi darajagacha bo'lgan yuqori darajalar – kasbiy, akademik va boshqa murakkab faoliyat turlari uchun zarur bo'lgan muloqot ko'nikmalarini baholaydi.

Bunda HSK 4-darajasi Xitoyda tahsil olish uchun asosiy talablardan biri hisoblanadi. Imtihonning yangi talqini joriy yilning 31-yanvar kuni Osiyo, Yevropa, Amerika, Afrika hamda Ummon okeani mintaqasidagi 168 ta davlatni qamrab oluvchi test markazlarida sinovdan o'tkazildi.

Xitoyning tegishli idoralari ko'magida xitoy tilini o'qitish sohasidagi xalqaro hamkorlik tarmog'i kengayishda davom etmoqda. 2025-yilda Xitoy O'zbekiston, Vetnam, Fiji, Moldova, Gretsiya va boshqa mamlakatlarning ta'lim vazirliklari bilan xitoy tilini o'qitishning mahalliyashtirilgan tizimlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hamkorlik kelishuvlarini imzoladi. Shuningdek, Xorvatiya, Indoneziya, Braziliya va boshqa davlatlar universitetlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, mahalliy xitoy tili o'qituvchilari hamda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlandi. Ushbu kelishuvlar har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan xitoy tilini o'qitish tizimlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xitoy bilan xorijiy hamkor maktablar soni 120 juftga yetdi. Bu esa umumiy ta'lim sohasidagi almashinuvlarni tartibga solish va rivojlantirishga amaliy yordam berishi kutilmoqda. Mintaqaviy hamkorlik doirasida 2026-yil boshida bo'lib o'tgan Xitoy–ASEAN insonlararo tajriba almashish forumi ASEAN mintaqasida xitoy tilini o'qitishni rivojlantirishga yanada ko'maklashdi. Tegishli muassasalar mahalliy o'qituvchilarni tayyorlash hamda o'quv dasturlarini birgalikda ishlab chiqish uchun platformalar yaratish orqali amaliy o'quv bazalarini tashkil etishda hamkorlik qildilar.

Bugungi kunda Xitoyda "Xitoy tili + kasbiy ta'lim" yo'nalishi doirasida sanoat va ta'lim integratsiyasiga asoslangan qo'shma yondashuv faol ilgari surilmoqda. Shuningdek, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi hamda Xitoy va xorijiy davlatlar o'rtasidagi turli sohalardagi hamkorlik faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Hozirgi vaqtda Xitoyning 29 ta mamlakatdagi yirik korxonalari va sanoat parklarida xitoy tilini puxta egallagan hamda uni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan 39 ta xitoy tili ustaxonasi tashkil etilgan.

Zhitong Chinese, New Silk Road "Chinese + Vocational Skills" va Industrial Chinese kasbiy ta'lim uchun mo'ljallangan xitoy tili o'quv qo'llanmalarining uchta asosiy turkumiga aylangan bo'lib, ular 16 ta mutaxassislik va 115 ta kasbni qamrab oluvchi jami 243 ta darslikni o'z ichiga oladi. Xitoy xalqaro miqyosda nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va texnologik qudrat sifatida ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Sun'iy intellekt, infratuzilma loyihalari va energetika sohasidagi qo'shma ishlanmalar turli yo'nalishlardagi mutaxassislar o'rtasida doimiy hamkorlikni talab etadi. Xitoy tilini bilish esa ushbu hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi <sup>[1]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'limning raqamli transformatsiyasi Xitoyning zamonaviy ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda o'qituvchilarning texnologik kompetensiyalarining ahamiyati bir necha baravar oshdi. So'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi bevosita o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi hamda ularning yangi ta'lim sharoitlariga moslashishga tayyorligiga bog'liq <sup>[2]</sup>. Bu jarayonda chet tili o'qituvchilari alohida o'rin tutadi, chunki ularning kasbiy faoliyati raqamlashtirish ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga uchradi.

Yetakchi tadqiqotchilarning ishlarida ta'kidlanganidek, chet tili o'qituvchilarning raqamli kompetentligi ta'lim sifatining muhim omiliga aylanib bormoqda hamda talabalarning ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda <sup>[4]</sup>. Zamonaviy o'qituvchilar uchun raqamli ko'nikmalarining ahamiyatini inobatga olgan holda, 2022-yilda Xitoy Ta'lim vazirligi "O'qituvchilarning raqamli savodxonligi" soha standartini e'lon qildi. Unda raqamli savod-





xonlik “o'qituvchilarning ta'lim va o'quv vazifalarini hal etish uchun raqamli ma'lumotlar va resurslarni olish, qayta ishlash, ulardan foydalanish, boshqarish hamda baholashda raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish bo'yicha xabardorligi, layoqati va mas'uliyati”<sup>[3]</sup> sifatida ta'riflangan. Mazkur standart XXRda ta'limni raqamlashtirish bo'yicha davlat siyosatini rivojlantirishdagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi<sup>[5]</sup>.

Xorijda xitoy tili o'qituvchilari va o'quv resurslari yetishmasligi muammosini hal etish maqsadida 2025-yilda Ta'lim vazirligining Til ta'limi va hamkorlik markazi xorijda xitoy tilini o'rganayotganlar, o'qituvchilar hamda xitoy tilini o'qituvchi ta'lim muassasalari uchun uch tomonlama raqamli qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishga qaratilgan bir nechta raqamli o'quv mahsulotlarini taqdim etdi.

Moslashuvchan HSK GO test mahsulotini xitoy tilini o'rganish uchun “o'ylovchi” dasturiy ta'minot sifatida tavsiflash mumkin. U algoritmlardan foydalanib, har bir ta'lim oluvchi uchun individual o'quv yo'nalishlarini yaratadi. Bu esa foydalanuvchilarga murakkab mashqlar orqali talaffuz, iyerogliflarning shakli hamda grammatikani bosqichma-bosqich o'rganish imkonini beradi. Uning moslashuvchan “miyasi” so'zlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash orqali o'rganish samaradorligini ikki baravar oshiradi. “Bulutli” darsxona bir vaqtning o'zida chet ellik xitoy tili o'qituvchilari va talabalariga xizmat ko'rsatadi.

Xitoy va xorijiy muassasalar tomonidan boshqariladigan 144 ta onlayn xitoy tili sinfi hamda bilimlarni baholash markazlari chet ellik o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Chet ellik xitoy tili o'qituvchilari uchun 449 ta kurs va 15 000 ta dars asosida yaratilgan Xitoy Alyansining sun'iy intellekt bo'yicha bulutli ta'lim va tadqiqot platformasi o'ziga xos “ta'lim bo'yicha maslahatchi” vazifasini bajaradi. Platforma aqlli dars rejalarini, shaxsiylashtirilgan o'quv materiallarini, mos mashqlarni hamda interaktiv o'yinlarni yaratishi, shuningdek, o'rganishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha aniq tavsiyalar berishi mumkin. Platforma xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida o'qitishni boshqarish funksiyalarini takomillashtirishda davom etmoqda.

Bundan tashqari, Tillarni uyg'unlashtirish markazi xitoy tiliga oid xalqaro bilimlar korpusi va bilimlar grafini ishlab chiqdi. Shuningdek, tegishli universitetlar va korxonalar bilan hamkorlikda o'quv kontenti tizimlari, o'qitish modellari hamda xizmat ko'rsatish ekotizimlarini intellektual takomillashtirishga xizmat qiluvchi raqamli intellekt laboratoriyalarini yaratmoqda.

Til universitetlari ham raqamli intellektni rivojlantirishga faol sarmoya kiritmoqda. Pekin til va madaniyat universiteti xitoy tili va yozuviga bag'ishlangan raqamli muzeyning veb-sayti hamda mobil ilovasini yaratdi. Ushbu platforma 7 000 dan ortiq resursni birlashtirgan bo'lib, 12,42 milliondan ortiq yuklab olish ko'rsatkichiga ega. Platforma “Xitoy mumtoz adabiyoti bo'yicha o'qish, yozish va og'zaki nutq” tanlovi bilan integratsiyalashgan bo'lib, musobaqalar orqali o'rganishni rag'batlantirish va baholash imkoniyatlarini taqdim etadi<sup>[8]</sup>.

O'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2026-yilda xitoy tilini o'qitish alohida uslubiy yo'nalish sifatida emas, balki huquqiy kafolatlar, yangilangan standartlar, isloh qilingan milliy standartlashtirish tizimi, mintaqaviy davlatlararo hamkorlik hamda uzluksiz raqamli transformatsiyaga asoslangan kompleks tizim sifatida rivojlanmoqda. Huquqiy kafolatlar barqaror institutsional asosni yaratdi, ya'ni ular ta'lim tizimida xitoy tilining maqomini mustahkamlaydi, moliyalashtirish va kadrlar salohiyatining barqarorligini ta'minlaydi. Tilning xalqaro maqomini me'yoriy-huquqiy jihatdan mustahkamlamasdan turib, ta'lim dasturlarini uzoq muddatli rejalashtirish mumkin emas. Standartlarning yangilanishi ta'lim mazmuni bilan mehnat bozori hamda akademik mobillikning zamonaviy talablari o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etdi.

HSKning yangi versiyasi tizimni shakllantiruvchi muhim elementga aylandi. U maktab, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi bosqich dasturlarini uyg'unlashtiradi, til bilish darajasining yagona mezonini sifatida xizmat qiladi hamda sertifikatning xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlaydi. Mintaqaviy hamkorlik mamlakatlarning intellektual va moddiy resurslarini birlashtirish, ishlanmalarning takrorlanishining oldini olish, yagona o'quv-uslubiy majmualarni yaratish hamda pedagog kadrlarning akademik mobilligini ta'minlash imkonini beradi. Natijada xitoy tilini o'rganish atrofida umumiy gumanitar makon shakllanmoqda.

Raqamli transformatsiya asosiy cheklovlardan biri bo'lgan geografik uzoqlik muammosini bartaraf etmoqda. Ta'lim dasturlari, ma'ruzalar, imtihonlar va ta'lim resurslari barcha hamkor mamlakatlarga real vaqt rejimida yetkazilmoqda. Bu esa sifatli til ta'limidan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni ham qayd etish lozim. Jumladan, ayrim hududlarda yuqori tezlikdagi internetdan teng foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, yangi standartlar va raqamli texnologiyalarni puxta egallagan o'qituvchilar yetishmasligi hamda ta'lim jarayonining ayrim hollarda til bilish standartlari talablariga haddan tashqari yo'naltirilishi jonli muloqot amaliyotining cheklanishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, faqat imtihonga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi bir tomonlama bo'lib, talabalarni til egalari bilan samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan chuqur madaniy bilimlardan mahrum qilishi mumkin. Shunga qaramay, umume'tirof etilgan standartlarning mavjudligi ta'lim jarayonini tizimlashtirish va aniq, o'lchanadigan maqsadlarni belgilash imkonini beradi.



## XULOSA

2026-yilda xitoy tilini o'qitish o'zaro bog'liq beshta yo'nalish bo'yicha amalga oshirilayotgan chuqur tizimli modernizatsiya bilan tavsiflanadi. Bular: tilning xalqaro maqomini ko'p darajali huquqiy kafolatlar orqali mustahkamlash; davlat va kasbiy ta'lim standartlarini keng ko'lamda yangilash; yagona sertifikatlash platformasi sifatida HSKning isloh qilingan raqamli versiyasini joriy etish; institutsional va mintaqaviy ta'lim hamkorligini rivojlantirish hamda ta'lim dasturlarini to'liq raqamli transformatsiya qilishdir. Qayd etilgan barcha tendensiyalar o'zaro bir-birini to'ldiradi. Huquqiy me'yorlar institutsional barqarorlikni ta'minlaydi, yangilangan standartlar ta'lim mazmunini belgilaydi, HSKning yangi versiyasi baholash tizimini standartlashtiradi, mintaqaviy hamkorlik resurslarini birlashtiradi, raqamli transformatsiya esa geografik to'siqlarni bartaraf etadi.

Kelgusidagi rivojlanish me'yoriy-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish, standartlarni ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, yangi milliy standartlashtirish tizimi imkoniyatlarini kengaytirish, mintaqaviy ta'lim tarmoqlari integratsiyasini chuqurlashtirish hamda xitoy tilini o'qitishning yagona global raqamli makonini to'liq shakllantirishga qaratiladi. Xitoy tilini chet tili sifatida o'qitishning zamonaviy tendensiyalari texnologik taraqqiyot, madaniyatlararo globallashtirish va pedagogik ustuvorliklarning o'zgarishi ta'sirida ta'lim paradigmasining chuqur transformatsiyalanayotganini yaqqol namoyon etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dinxuan Li. Issledovaniye tekushey situatsii i perspektiv prepodavaniya kitayskogo yazika v Rossii. Upravleniye obrazovaniyem: teoriya i praktika / Education Management Review. Vol. 15, No. 5-2, 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-tekushey-situatsii-i-perspektiv-prepodavaniya-kitayskogo-yazyka-v-rossii/viewer>
2. Li Y. Digital Competence of K-12 Pre-service and In-service Teachers in China: A Systematic Literature Review. Asia Pacific Education Review. 2023. No. 24. Pp. 655–672. [https://www.researchgate.net/publication/373153256\\_Digital\\_competence\\_of\\_K12\\_preservice\\_and\\_inservice\\_teachers\\_in\\_China\\_a\\_systematic\\_literature\\_review#full-text](https://www.researchgate.net/publication/373153256_Digital_competence_of_K12_preservice_and_inservice_teachers_in_China_a_systematic_literature_review#full-text)
3. Szinszin Li. Vliyaniye gosudarstvennyx obrazovatelnyx standartov Kitaya na formirovaniye tsifrovyyh navykov u prepodavateley inostrannyx yazykov. Upravleniye obrazovaniyem: teoriya i praktika / Education Management Review. Vol. 15, 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-gosudarstvennyh-obrazovatelnyh-standartov-kitaya-na-formirovanie-tsifrovyyh-navykov-u-prepodavateley-inostrannyh-yazykov/viewer>
4. Xin Y., Tang Y., Mou X. An Empirical Study on the Evaluation and Influencing Factors of Digital Competence of Chinese Teachers for TVET. PLOS ONE. 2024. No. 19(2).
5. 郁云峰. 《奋力开创国际中文教育高质量发展新局面》. 中国教育新闻网-《神州学人》. 2026年第1期. [http://m.jyb.cn/rmtzcg/xwy/wzxw/202601/t20260109\\_2111435408\\_wap.html](http://m.jyb.cn/rmtzcg/xwy/wzxw/202601/t20260109_2111435408_wap.html)
6. 《中华人民共和国国家通用语言文字法》. 2026年修订版. <https://thy.sstu.edu.cn/75/12/c944a95506/page.htm>
7. 《HSK3.0考试大纲》. 中外语言交流合作中心. 2025. <https://baike.baidu.com/item/HSK3.0%E8%80%83%E8%AF%95%E5%A4%A7%E7%BA%B2/66992443>
8. 静文. 《国际中文教育新年趋势速览》. 《人民日报海外版》. 2026年01月23日, 第11版. [https://mp.weixin.qq.com/s?\\_\\_biz=MzA3OTI3MjEzNg==&mid=2650978761&idx=2&sn=3e27349850b8fd377d9889e85f187c-da&chksm=857b7632dd2e5ac8f2572653f0f4df6f04d0e2f0bd9a306ae42854867fad9da7171d846dd2eb&scene=27](https://mp.weixin.qq.com/s?__biz=MzA3OTI3MjEzNg==&mid=2650978761&idx=2&sn=3e27349850b8fd377d9889e85f187c-da&chksm=857b7632dd2e5ac8f2572653f0f4df6f04d0e2f0bd9a306ae42854867fad9da7171d846dd2eb&scene=27)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.